

AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING O'QITISH METODIKASI

Farg'onada davlat universiteti akademik litseyi "Aniq fanlar" kafedrasi Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi Mamadaliyeva Muhayyo Komiljonovna


Annotatsiya: Informatika o'qitish metodikasi – informatikani o'quv predmeti sifatida va turli yoshdagagi o'quvchilarga uni o'rgatish jarayonining qonuniyatlarini o'rganadigan fandir.

Kalit so'zlar: Axborot - bu boshqaruv apparati faoliyatining xam dastlabki nuqtasi, ham natijasidir.

Informatika o'qitish metodikasining maqsadi

Informatika o'qitish metodikasini o'rganishning maqsadi o'qituvchilarda o'zining shaxsiy metodik tizimini ishlab chiqish va shakllantirishdan iborat.

O'qitishning metodik tizimi



Informatika o'qitish metodikasiga ...

Informatika o'qitish metodikasiga "Informatika" o'quv predmetini o'qitish uchun o'quv-metodik, dasturiy, tashkiliy va texnik ta'minotni tadqiq etish hamda ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan, pedagogika va informatika fanining bir shoxobchasi sifatida qarash mumkin.

O'quv-metodik ta'minot

O'quv-metodik ta'minot sohasida informatika o'qitish metodikasi o'z oldiga o'quvchilar uchun darslik va o'quv qo'llanmalarini, o'qituvchilar uchun esa uslubiy ishlasmalarini yaratishni maqsad qilib qo'yadi. O'quv-metodik ta'minot – o'quv

dasturlari, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalarni, shu jumladan, ularning elektron variantlarini qamrab oladi. O'quv-metodik ta'minotning hozirgi vaqtdagi muhim tarkibiy qismi elektron o'quv-uslubiy materiallardir.

Dasturiy ta'minot

Dasturiy ta'minot sohasida informatika o'qitish metodikasi yangi dasturiy mahsulotni ishlab chiqishni, muayyan dasturiy mahsulotdan foydalanish maqsadga muvofiqligini asoslab beradi. Informatika kursining dasturiy ta'minoti kompyuterlarning bazaviy tayanch dasturiy ta'minoti va informatika kursining ma'lum bir mavzularini o'rganishga yordam beradigan pedagogik dasturiy vositalar (PDV) kompleksidan tashkil topadi.

Bazaviy dasturiy ta'minot quyidagilardan tashkil topadi:

- klaviatura trenajeri;
- dasturlash tillari;
- Mikrosoft office paketi;
- matn muharriri;
- grafik muharrir yoki protsessor;
- elektron jadvallar;
- ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari;
- lokal tarmoq bilan ishslash dasturlari va boshqalar.

Pedagogik dasturiy vositalar quyidagilardan iborat:

- o'quv-o'yin dasturlari;
- o'rgatuvchi va mashq qildiruvchi dasturlar;
- test dasturlari;
- elektron o'quv materiallarini yaratish uchun uskunaviy dasturiy vositalar;
- ma'lumotnomalarini tizimlari va boshqalar.

Tashkiliy ta'minot

Tashkiliy ta'minot sohasida informatika o'qitish metodikasi **Pedagogik dasturiy vositalar** (PDV) va axborot texnologiyalarini o'qitishda samarali qo'llash maqsadida ta'lim muassasalari xodimlari faoliyatini faollashtirishni ko'zda tutadi.

Texnik ta'minot

• **Texnik ta'minot** sohasida informatika o'qitish metodikasining maqsadi quyidagilardan iborat:

- o'quv-tarbiya jarayonida foydalaniladigan texnik vositalarni tanlashni iqtisodiy asoslash;
- kelajakda foydalanish istiqbollarini hisobga olgan holda informatika xonasining parametrlarini, jihozlarini aniqlash.

DARS O'TISH METODLARI VA UNGA TURLI JIHATDAN YONDASHISH

1. O‘qitish metodlarining serqirraligi, murakkab tuzilishga ega ekanligi unga turli jihatdan yondashuvlarda o‘z ifodasini topadi.

Didaktik tadqiqotlar mashg‘ulot o‘tkazishni dialektik jarayon sifatida o‘rganadi. Unga ko‘ra:

O‘qitish metodlari tizimi dinamikada, harakatda, ta’lim tizimida yuz berayotgan barcha o‘zgarishlarni hisobga olgan holda o‘zgaradi, rivojlanadi, deb qaraladi.

Barcha metodlar bir-biri bilan aloqador. Biri ikkinchisini to‘ldiradi, biri ikkinchisiga bog‘liq.

Dastlab, dars berish metodlarini tasniflashga an’anaviy jihatdan yondashilib, o‘rganiladigan bilim manbalariga ko‘ra guruhlarga ajratilgan. Bunday guruhlanishning ijrosi qadimgi falsafiy va pedagogik qarashlarga borib taqaladi. Bunday manbalar, qadimda uchta: **amalda sinash, ya’ni praktika (tajriba), ko‘rgazmali, og‘zaki (so‘z orqali)** ifodalangan. Jamiyat taraqqiyoti tufayli keyinchalik unga kitob bilan ishslash qo‘sildi. So‘nggi 20 yil mobaynida hayotga, shuningdek, ta’limga shiddat bilan yangi metodlar, qog‘ozsiz axborot manbai: video-kompyuter tizimi kirib keldi.

2. Shunday qilib, hozirgi paytda o‘rganiladigan bilim manbalariga ko‘ra, metodlar 6 guruhgaga bo‘linadi, hamda qator usullarni o‘z ichiga oladi:

1. Amalda sinash, tajriba metodi:

- tajriba o‘tkazish, amaliyot o‘tkazish;
- mashq qilish jarayonida qatnashish, mehnat, ishlab chiqarish.

2. Ko‘rgazmali namoyish qilish metodi:

- o‘quvchi, talabalar tomonidan kuzatish, amaliyot o‘tkazish.

3. Og‘zaki so‘z orqali ifodalanadigan metod:

- tushuntirish, ongiga yetkazish;
- hikoya qilish;
- o‘zaro fikr almashuv;
- suhbat o‘tkazish;
- yo‘l – yo‘riq, ko‘rsatma berish;
- ma’ruza;
- munozara, mubohasa, bahs va boshqalar

4. Kitob bilan ishslash:

- o‘qish, o‘rganish, tezda ko‘rib chiqish;
- sitata keltirish va uning ustida ishslash, bayon yozish;
- referat yozish, konspekt tuzish.

5. Video metod:

- kompyuterda mashq, test yechish;
- nazorat o‘tkazish;
- internetda ishslash;
- o‘quv filmlarini tayyorlash va namoyish etish;

- axborot texnologiyalariga asoslanib, ishlab chiqilgan dasturlar asosida kompyuterda iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, ularga omillar ta'sirini o'rganish;
- multimedia asosida taqdimot tayyorlash, namoyish etish va boshqa shu kabilarni qamrab oladi.

6. Pedagog olimlar (M.A. Danilov, B.P. Yesipov) o'quv jarayonini tashkil qilish maqsadlari va uni amalga oshirish bosqichlariga ko'ra dars o'tish metodlarini quyidagi guruhlarga ajratadi:

- bilimni egallah;
- malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- olingan bilimni amalda qo'llash;
- ijodiy faoliyat;
- olingan bilimni mustahkamlash;
- bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish metodlari

Guruhlashdan ko'rinish turibdiki, u dars jarayonini tashkil qilishning klassik sxemasi asosiga qurilgan. Bunda asosiy maqsad, pedagoglarga o'quv–tarbiya jarayonini amalga oshirish va metodlar majmuuni soddalashtirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.
2. M. Aripov, M. Muhammadiyev. Informatika, information texnologiyalar. Darslik. T.TDYuI, 2004 y.
3. M.Aripov, M.Fayziyeva, S.Dottayev. Web texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T. "Faylasuflar jamiyati", 2013 y.
4. B.Mominov. Informatika. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur-bo'stoni", 2014 y.
5. www.tdpu.uz – Nizomiy nomidagi TDPU rasmiy sayti
6. www.ziyonet.uz – ZiyoNet axborot ta'lim portalı
7. www.edu.uz
8. <http://www.ctc.msiu.ru/materials/Book1,2/index1.html>
9. Ahmadaliyeva G. H. et al. YARIMO 'TKAZGICH MODDALAR VA ULARNING XARAKTERISTIKALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 91-93.
10. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. YURAK ISHEMIK KASALLIKLARI VA ULARNI OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY USULLARI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 6.
11. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. BUYRAK TOSH KASALLIKLARINI HOSIL BO'LISHIDA GIPODINAMIYANING TA'SIRI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 6.
12. Usmonov S., Alisherjonova F. INSON TANASIDA BO'LADIGAN ELEKTR HODISALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 200-203.

- 13.Usmonov S., Isroilov S. CHAQALOQLARDA QORIN DAM BO'LISHINING SABABLARI, DAVOLASH USULLARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 196-199.
- 14.Isroil o'g'li X. M., Abdusubxon o'g'li U. S. GIPERTONIYA KELIB CHIQISHI SABABLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS". – 2023. – Т. 2. – №. 5.
- 15.Abdusubxon o'g'li U. S. et al. BOLALARDA GASTROENTRITNING NAMOYON BO'LISHI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS". – 2023. – Т. 2. – №. 5.
- 16.Abdusubxon o'g'li U. S. et al. KAM HARAKATLIK NATIJASIDA KELIB CHIQADIGAN KASALLIKLARNI XALQ TABOBATI BILAN DAVOLASHNING TOP 10 TA USULI //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – Т. 1. – №. 3.
- 17.Abdusubxon o'g'li U. S. et al. GIPERTONIYA KASALLIGINI RIVOJLANISHINI OLDINI OLİSHNING ENG YAXSHI USULLARI //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – Т. 1. – №. 3.
- 18.Abdusubxon o'g'li U. S. et al. QONNI SUYULTIRADIGAN TOP-10 MAHSULOT //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – Т. 1. – №. 3.
- 19.Abdusubxon o'g'li U. S. ELEKTROMAGNIT MAYDONINING ORGANIZMGA TA'SIRI //SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 1. – №. 2.
- 20.Abdusubxon o'g'li U. S. et al. KONDILOMA VIRUSLARINI DAVOLASHDA KRIOGEN TERAPIYA //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 1.
- 21.Abdusubxon o'g'li U. S., Madaminovna M. F. TA'LIM JARAYONLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARING TUTGAN O'RNI //International scientific-practical conference on" Modern education: problems and solutions". – 2022. – Т. 1. – №. 5.
- 22.Abdusubxon o'g'li U. S., Madaminovna M. F. FIZIKA FANINI KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISHNING AHAMIYATI //E Conference Zone. – 2022. – С. 217-219.
- 23.Abdusubxon o'g'li U. S., Yusubjanovna A. M. YARIMO 'TKAZGICH MONOKRISTALINI O 'STIRISH //E Conference Zone. – 2022. – С. 33-34.
- 24.Abdusubxon o'g'li U. S. YURAK QON-TOMIR SISTEMASI KASALLIKLARI. MIOKARD INFAKTI PAYDO BO'LISH MEXANIZMI VA OLDINI OLİSH CHORALARI //E Conference Zone. – 2022. – С. 227-228.**